

2024 yilda amalga oshirilgan import hajmi hamda importni qisqartirish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risida MA'LUMOT

ИНФОРМАЦИЯ об объемах импорта и принятых мерах по сокращению импорта за 2024 год

I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.

2024 yilda kombinat bo'yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **56,4** mln. dollarni tashkil etdi.

"Navoiy KMK" AJ ning mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. Mashina va uskunalar (gidravlik ekskovator) - **1,2** mln. dollar (2,2%);
2. Butlovchilar va ehtiyyot qismlar (ichki yonuv dvigatellari va beg'araz asosda olib kirilgan boshqa qismlar, kon va shaxta texnikasiga ehtiyyot qismlar va beg'araz asosda olib kirilgan boshqa qismlar) – **25,4** mln. dollar (44,9 %);
3. Hom-ashyo va materiallar (og'ir yuk ko'taradigan kon-shaxta texnikasi uchun shinalar, portlashlarni yuzaga keltiruvchi vositalar va boshqalar) – **5,0** mln. dollar (9,0 %);
4. Xizmatlar – **24,8** mln. dollar (43,9%).

Kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'limgan, Mahalliy lashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi amalga oshirilmadi.

II. Kombinat bo'linmalari quvvatlarida mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.

2024 yilda mahalliy lashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq, joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida **183** ta (grafik bo'yicha 183 ta) loyiha bo'yicha **915,8** mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan **101,1%**ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2023 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **145,5%**ni tashkil etdi.

Xususan, 3-gidrometallurgiya zavodi uchun yangi turdag'i 4,5x6,0 metrli sharli, 7,0x2,3 metrli maydalash tegrimonlari, masofada boshqariladigan avtomatlashtirish tizimlari asosida ishlovchi pultlar, vibratsion oziqlantiruvchi boshqaruv shkafi, yangi turdag'i kon-shaxta burg'ulash texnikalari uchun ehtiyyot qismlari hamda yirik avtosamosvallari uchun ehtiyyot va butlovchi qismlar ishlab chiqarilib topshirildi.

III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish va kooperasiya hisobiga importni optimallashtirish.

2024 yilda sanoat kooperasiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan sanoat mahsulotlar hajmi **6 244.6** mlrd. so‘mni va 2023 yilning mos davriga nisbatan 112,6% ni tashkil etdi.

Kombinatning 2024-yilga mo‘ljallangan import bo‘yicha olib kiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini kengaytirish hisobiga importni qisqartirishning maqsadli ko‘rsatkichlari joriy yilning yanvar-sentabr oylarida **115,3** mln. dollarni tashkil etdi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi ko‘zda tutilgan, kelib chiqishi import bo‘lgan tovarlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni elektron kooperasiya portalida to‘liq o‘rganish orqali ma’lumotnomaga shakllatirilgach xaridlar amalga oshirilmoqda.

2024-yil davomida hududiy va tarmoqlararo sanoat yarmarkalarida (jami 14 ta) faol ishtirok etilib, mahalliy korxonalar bilan **4,1** trln.so‘mlik hamkorlik shartnomalari tuzildi.

“NKMK” AJ importni qisqartirish va ishlab chiqarishni mahalliylashtirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish va xaridlar shaffofligini oshirish bo‘yicha doimiy choralar ko‘rilmoxda.